

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY METODIK IMKONIYATLARI

Mirzoyev Dilshod Po'lotovich

“TIQXMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute

“Elektr energetikasi va elektrotexnika” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etish masalalariga takliflar va oliy ta'lim muassalaridagi talabalarning mutaxassislik fanlarini o'qitish holati va kelajgdagi istiqbollari xususida fikr yuritiladi. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda dasturiy ta'limni ahamiyati va mustaqil ta'limni tashkil etish chora tadbirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: konsepsiy, kredit, modul, oliy ta'lim tizimi, ta'lim sifati, o'quv dasturlari, kompetent, modernizatsiyalash, fiziologik, mobil, ekspert, Energo City.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandır. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining “Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan 3-bobining “Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan 1-§ da “Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quvslubiy materiallarni keng joriy etish” masalalarida ta'lim oluvchilarning



mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonidatalabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quvslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lim muassalarida talabalarini tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega,



o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislariga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi.

Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni echimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishdir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba



esa yo'naltirilgan ob'ekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

Ta'lim muassasalarida talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad:

- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir;

- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;

- talabalarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;

- predmetlararo aloqadorliqni ta'minlash;

- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;

- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;

- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida mutaxassislikka tayyorgarlikni takomillashtirish;

- fanlar va mutaxassisliklarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;

- darsning samaradorligini oshirish yo'llari;

- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;

- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;

- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;

- internet tarmog'idan ratsional echimini belgilash;

- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;

- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.



Mutaxassislik fanlar blokiga oid ijtimoiy tarmoqlardan hisoblanadigan telegram tarmog'ida "Elektronika va energetika" nomli nashir kanali, majburiy fanlar blokidagi "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" va "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" fanining elektron darslik dasturlari, va "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanining dasturlashtirilgan mukammal elektron o'quv-qo'llanma dasturi ishlab chiqilib, o'quv jarayonida o'quv-metodik va didaktik vosita sifatida qo'llanilgan. Talabalarni o'qitish jarayonida, kompetentligini rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va ob'ektiv baholashga, dasturiy ta'lim vositalardan amalda nazorat qilish imkonini beruvchi mezonlar va ko'rsatkichlar tanlanib, baholash vositalari sifatida foydalanilgan hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilganligi, nazariy materiallarni o'zlashtirishamaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, o'qitishning elektron-dasturiy va metodik ta'minoti bo'yicha dasturlashtirilgan elektron didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.


Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning kompetentligini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislik fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimidagi eng muhim metodik muammo bo'lib, bu sohadagi vazifalarning samarali echimi, oliy ta'lim tizimidagi o'qitish jarayonini innovatsion talablar va kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Telegram - tezkor va xavfsiz xabar almashish ilovasi. Deyarli SMS yoki elektron pochta kabi, lekin oddiy matnli xabarlarni yuborishdan tashqari, siz fotosuratlar, videolar va boshqa har qanday fayllarni ham yuborish mumkin. SHuningdek, guruh suhbatlarini (200 000 ishtirokchigacha) yaratishingiz, kanallarni o'qishingiz va video va audio qo'ng'iroqlarni amalga oshirishingiz mumkin. Ushbu mobil dastur talabalarni, shuningdek fanni mustaqil o'rganuvchilar uchun auditoriyada berilgan ta'limni yanada mustahkamlash, o'z ustida ishlashni osonlashtirish, o'zining reytingini belgilash, xoxlagan paytida shaxsiy mobil telefoni yoki cho'ntak kompyuterlaridan foydalangan holda 80-90 % o'zlashtirish natijasiga erishish imkonini beradi.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunning globallashuv jarayonida insonlarning mobil telefonlardan foydalanish ko'rsatkichlari kundan - kunga ortib bormoqda. Ob'ektiv hayotimizning statistik tahlillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barcha yoshdagilar, ayniqsa yoshlar o'rtasida mobil telefondan samarasiz foydalanishini kuzatish mumkin. Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqqan holda, talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarida ta'limning asosiy komponentlarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish maqsadida mobil dastur telegram nashr kanalida admin va havola orqali a'zo bo'linadi. Foydalanuvchi (talaba) dasturni o'zining shaxsiy





mobil telefoniga, o‘rnatadi va havola orqali nashr kanaliga a‘zo bo‘lib, dars va darsdan tashqari mustaqil ta‘lim jarayonlarida, ya‘ni bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish maqsadida masalan: avtobus va metro bekatlarida, ko‘chada zarur bo‘lgan hollarda bemalol foydalanishga mo‘ljallangan.



Telegram mobil dasturida “Elektronika va energetika” nomli nashr kanalining mobil telefonga o‘rnatilgan holatidan lavha

Mobil dasturda mutaxassislik fanlardan elektron adabiyotlar, rasmlar va video roliklar, dunyo va respublikamizda soha bo‘yicha eng so‘ngi yangiliklar va ixtirolar yuklab boriladi.


Telegramm mobil dasturida yuklab borilgan ma‘lumotlarni talabalar tomonidan mustaqil o‘qib-o‘rganib borilayotganligini nazorat qilish maqsadida kun oxirida testlar tayorlanib nashr kanaliga yuklanadi va natijalar qayt qilinib, e‘lon qilib boriladi.




Telegram mobil dasturida video, o‘quv adabiyotlar va test topshiriqlarining ko‘rinishi

Nashr kanali o'zining oson o'qilishi, tushunarligi, barcha kerakli ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirganligi, o'rgatuvchi va nazorat testlarining osondan murakkabga yo'naltirilgan holda tuzilganligi, talabalar qiziqishini ortirib boradi. 5310200 - Elektr energetikasi (elektr ta'minoti) ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlarni qamrab olgan.

Hozirgi asosiy ijtimoiy tarmoqlardan hisoblanadigan "You Tube" saytida "Energо City" nomli kanal yaratilgan bo'lib, energetika sohasida 5310200 - Elektr energetikasi (elektr ta'minoti) ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlaridan "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" va "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" fan dasturlaridan ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mavzulari soha bo'yicha video roliklar va animatsiyalar yuklab boriladi.



"You Tube" saytida "Energо City" nomli kanal ko'rinishi



Yuqoridagi ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan kanallar orqali talabalarni mustaqil ta'lim olishlari bilan birgalikda, bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish imkonini beradi. O'tilgan mavzular yuzasidan test topshiriqlari talabalarining o'z-o'zini



baholash imkonini va bilim darajalarini oshiribgina qolmay dars jarayonlarining sifatini ham kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Toshkent, 2017. – B. 39.
2. Polotovich, M. D. (2022). Teaching Specialty Subjects Improvement Methodology. *Miasto Przyszłości*, 25, 345-353.
3. Po'lotovich, M. D., & Bobur o'g'li, A. B. (2022). Muqobil energiya manbalarini energiya zahiralardagi o'rni. *Results of National Scientific Research*, 1(3), 119-122.
4. Mirzoev, D. P., & Kakhkhorov, S. K. (2021). Modern methods of improving the quality of education in the organization of the educational process in higher education. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(6), 277-283.
5. To'raev, S. D., Amrullaev, B. B., & Boybekov, A. A. O'. (2021). Synchronous machinelard dynamic Jarayonlarni tadqiq etish muammolari. *Ilmiy taraqqiyot*, 2 (7), 1315-1319.
6. To'raev, S. D., Amrullaev, B. B., Komilov, Sh., & Boibekov, A. A. O'. (2021). Asynchron motorlard yuzag keladigan nuksonlar tavsifi. *Ilmiy taraqqiyot*, 2 (7), 1310-1314.